

9- dekabr - Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro kuni

// 09.12.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/9-dekabr-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-xalqaro-kuni>



BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab **“9-dekabr - Butun jahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”** sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan **“O'zkimyosanoat” AJ**da ijroiya boshqaruv apparati xodimlari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul vakili ishtirokida tadbir bo'lib o'tdi.

Unda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, qaror va farmonlar hamda ularning ijrosi haqida so'z bordi. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi tomonidan agentlikning bugungi kundagi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, tadbir davomida “O'zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi birinchi kuzatuv auditidan muvaffaqiyatli o'tganligi va xalqaro auditorlik va sertifikatlash tashkiloti tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi amalda samara berayotganining asosiy ko'rsatkichi hisoblanuvchi **ISO 37001: 2016** xalqaro muvofqlik sertifikati muddati yana bir yilga uzaytirilgani alohida e'tirof etildi.

Darhaqiqat, korrupsiya – davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishini tanazzul yoqasiga olib

keladigan, jahon maydonidagi nufuziga putur yetkazadigan, xalqning esa haqiqat, adolat haqidagi fikr-mulohazalarini tamoman boshqa tomonga o'zgartirib yuboradigan xavfdir. Shu bois, "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasida aniq tizimli ishlar muntazam ravishda amalga oshiriladi.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati